

<http://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)  
ISSN 2181-1717 (E)



# ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИОН ТАДҚИҚОТЛАР

# ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

# EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

7  
—  
2021

**ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИОН ТАД҆ҚИҚОТЛАР**  
**ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ**  
**EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH**



№ 7, 2021  
декабрь

<p>Муассис:</p> <p>Бухоро давлат университети Фан ва таълим МЧЖ</p> <p><u>Бош мухаррир:</u> Маъмуроў Баҳодир Бахшуллаевич</p> <p><u>Жамоатчилик кенгапси раиси:</u> Хамидов Обиджон Ҳафизович, Бухоро давлат университети ректори.</p> <p><u>Тахририят кенгапси раиси:</u> Махмудов Мэлс Ҳасанович</p> <p><u>Масъул котиб:</u> Акрамова Гулбахор Ренатовна</p> <p><u>Тахририят манзили:</u> Бухоро шаҳар, Қ.Муртазоев кӯчаси, 16-й</p> <p><u>Телефон:</u> +998(90)744-00-22</p> <p><u>E-mail:</u> eirjurnal2020@gmail.com</p> <p><u>Журналнинг электрон сайти:</u> www.interscience.uz</p> <p>Журнал ОАК Раёсатининг 2021 йил 30 сентбрдаги 306/6-сон Қарори билан ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ, ФИЛОЛОГИЯ, ТАРИХ</p> <p>ФАНЛАРИ бўйича фалсафа доктори (PhD) ва фан доктори (DSc) илемий даражасига талағорларнинг диссертация ишлари юзасидан асосий илемний натижаларини чоп этиши тавсия етилган илемний нашрлар рўйхатига киритилган</p> <p>Босишга руҳсат этилди: 25.12.2021 й. Қоғоз бичими 60x84 1/8. б/т.12,5. Буюртма рақами 12 «Бухоро вилоят босмахонаси» МЧЖда чоп этилди. Бухоро шаҳар</p> <p>Журнал 28.07.2021 йилда 9305 раками билан Ўзбекистон Оммавий аҳборот воситалари давлат рўйхатидан ўтган.</p> <p>Журнал 2021 йил ноябрь ойидан бошлаб ҳар ойда 1 марта ўзбек, рус ва инглиз тилларида чоп этилади.</p> <p>«Таълим ва инновацион тадқиқотлар» халқаро илемний-ме- тодик журналидан кўчириб босиши тахририятнинг розилиги билан амалга оширилади</p> <p>Мақолада келтирилган фактларнинг тўғрилиги учун муаллиф масъуллар</p>	<table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <thead> <tr> <th colspan="2" style="text-align: center; background-color: #0070C0; color: white;">07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td style="width: 60%;">Валихонова Г. К. XIX-XX аср бошларида Фаргона водийсининг полиэтник ҳолати</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">7</td></tr> <tr> <td>Жумаев Р.Ғ. Ҳуқуқий таълим – эркин фуқаролик жамияти барпо этишининг муҳим мезони</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">15</td></tr> <tr> <td>Ҳамаев Н.М. Даврий матбуот Ўзбекистондаги истиқлол учун қуролли ҳаракат раҳбарлари ва уларнинг вазифалари хусусида</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">20</td></tr> <tr> <td>Юсупов Р. М. Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний назорати мусулмон мамлакатларининг диний ташкилотлари билин алоқалари</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">31</td></tr> <tr> <td>Тўрабоева Я. Р. Ўзбекистонда туризмни ривожлантиришга қаратилган амалий ҳаракатлар: муаммо ва натижалар таҳлили</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">36</td></tr> <tr> <td>Юсупов Р.М. Совет даври хукмронлиги даврида ўзбекистон мусулмонларининг диний масалалалари</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">41</td></tr> <tr> <td>Qodirova R. M. Milliy maorif tizimi va ta'limda sovet modelini tatbiq qilinishi borasidagi ilk qadamlar: islohotlar va oqibatlar</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">45</td></tr> <tr> <td>Курбанова Д. Ш. Қадимги ва ilk ўрта асрлар даври Хоразм аҳолисининг диний урф- одатларини археологик маълумотлар асосида тиклаш муаммоси</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">50</td></tr> <tr> <td colspan="2" style="text-align: center; background-color: #0070C0; color: white;">10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</td></tr> <tr> <td>Ражабов Д. З., Рўзиев Н.Қ. Ўзбек халқ афсона ва ривоятларининг инглизча таржима-сида миллий образ ва тасвир воситалари</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">57</td></tr> <tr> <td>Жамилова Б. С. Истиқлол даври ўсмирлар қиссаларининг жанрий, бадиий-композицион хусусиятлари</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">64</td></tr> <tr> <td>Mamatqulova N. B., Xakimova M. G‘. Alpomish dostoni eposining asosiy tendensiyalari</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">72</td></tr> <tr> <td>Турсунов Б. Ўзбекистонда хорижий тилларни ўқитишининг шаклланиши ва унинг тарихий босқичлари</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">78</td></tr> <tr> <td>Ro'ziyeva S. H. Modelleshtirish texnologiyasi umumiy o'rta ta'limda sintaksis bo'simini o'qitishda optimal yondashuv sifatida</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">86</td></tr> <tr> <td>Altinova F. P.Oxunjonova F. A. Muqimiy, furqat, hazaniy ijodida zullisonaynlik</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">95</td></tr> <tr> <td colspan="2" style="text-align: center; background-color: #0070C0; color: white;">13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</td></tr> <tr> <td>Шин Агриппина В. Организация и планирование образовательного процесса обучения дошкольного образования на основе личностно-ориентированного подхода</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">100</td></tr> <tr> <td>Абдурахимова Л. А. Тиббий таълим сифатини оширишда замонавий педагогик тех-нологияларнинг қўлланилиши</td><td style="text-align: center; vertical-align: bottom;">112</td></tr> </tbody> </table>	07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ		Валихонова Г. К. XIX-XX аср бошларида Фаргона водийсининг полиэтник ҳолати	7	Жумаев Р.Ғ. Ҳуқуқий таълим – эркин фуқаролик жамияти барпо этишининг муҳим мезони	15	Ҳамаев Н.М. Даврий матбуот Ўзбекистондаги истиқлол учун қуролли ҳаракат раҳбарлари ва уларнинг вазифалари хусусида	20	Юсупов Р. М. Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний назорати мусулмон мамлакатларининг диний ташкилотлари билин алоқалари	31	Тўрабоева Я. Р. Ўзбекистонда туризмни ривожлантиришга қаратилган амалий ҳаракатлар: муаммо ва натижалар таҳлили	36	Юсупов Р.М. Совет даври хукмронлиги даврида ўзбекистон мусулмонларининг диний масалалалари	41	Qodirova R. M. Milliy maorif tizimi va ta'limda sovet modelini tatbiq qilinishi borasidagi ilk qadamlar: islohotlar va oqibatlar	45	Курбанова Д. Ш. Қадимги ва ilk ўрта асрлар даври Хоразм аҳолисининг диний урф- одатларини археологик маълумотлар асосида тиклаш муаммоси	50	10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ		Ражабов Д. З., Рўзиев Н.Қ. Ўзбек халқ афсона ва ривоятларининг инглизча таржима-сида миллий образ ва тасвир воситалари	57	Жамилова Б. С. Истиқлол даври ўсмирлар қиссаларининг жанрий, бадиий-композицион хусусиятлари	64	Mamatqulova N. B., Xakimova M. G‘. Alpomish dostoni eposining asosiy tendensiyalari	72	Турсунов Б. Ўзбекистонда хорижий тилларни ўқитишининг шаклланиши ва унинг тарихий босқичлари	78	Ro'ziyeva S. H. Modelleshtirish texnologiyasi umumiy o'rta ta'limda sintaksis bo'simini o'qitishda optimal yondashuv sifatida	86	Altinova F. P.Oxunjonova F. A. Muqimiy, furqat, hazaniy ijodida zullisonaynlik	95	13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ		Шин Агриппина В. Организация и планирование образовательного процесса обучения дошкольного образования на основе личностно-ориентированного подхода	100	Абдурахимова Л. А. Тиббий таълим сифатини оширишда замонавий педагогик тех-нологияларнинг қўлланилиши	112
07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ																																							
Валихонова Г. К. XIX-XX аср бошларида Фаргона водийсининг полиэтник ҳолати	7																																						
Жумаев Р.Ғ. Ҳуқуқий таълим – эркин фуқаролик жамияти барпо этишининг муҳим мезони	15																																						
Ҳамаев Н.М. Даврий матбуот Ўзбекистондаги истиқлол учун қуролли ҳаракат раҳбарлари ва уларнинг вазифалари хусусида	20																																						
Юсупов Р. М. Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний назорати мусулмон мамлакатларининг диний ташкилотлари билин алоқалари	31																																						
Тўрабоева Я. Р. Ўзбекистонда туризмни ривожлантиришга қаратилган амалий ҳаракатлар: муаммо ва натижалар таҳлили	36																																						
Юсупов Р.М. Совет даври хукмронлиги даврида ўзбекистон мусулмонларининг диний масалалалари	41																																						
Qodirova R. M. Milliy maorif tizimi va ta'limda sovet modelini tatbiq qilinishi borasidagi ilk qadamlar: islohotlar va oqibatlar	45																																						
Курбанова Д. Ш. Қадимги ва ilk ўрта асрлар даври Хоразм аҳолисининг диний урф- одатларини археологик маълумотлар асосида тиклаш муаммоси	50																																						
10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ																																							
Ражабов Д. З., Рўзиев Н.Қ. Ўзбек халқ афсона ва ривоятларининг инглизча таржима-сида миллий образ ва тасвир воситалари	57																																						
Жамилова Б. С. Истиқлол даври ўсмирлар қиссаларининг жанрий, бадиий-композицион хусусиятлари	64																																						
Mamatqulova N. B., Xakimova M. G‘. Alpomish dostoni eposining asosiy tendensiyalari	72																																						
Турсунов Б. Ўзбекистонда хорижий тилларни ўқитишининг шаклланиши ва унинг тарихий босқичлари	78																																						
Ro'ziyeva S. H. Modelleshtirish texnologiyasi umumiy o'rta ta'limda sintaksis bo'simini o'qitishda optimal yondashuv sifatida	86																																						
Altinova F. P.Oxunjonova F. A. Muqimiy, furqat, hazaniy ijodida zullisonaynlik	95																																						
13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ																																							
Шин Агриппина В. Организация и планирование образовательного процесса обучения дошкольного образования на основе личностно-ориентированного подхода	100																																						
Абдурахимова Л. А. Тиббий таълим сифатини оширишда замонавий педагогик тех-нологияларнинг қўлланилиши	112																																						



Жуманиёзова М. Т. Малака ошириш жараёнида ижтимоий-гуманитар йўналиш ўқитувчиларининг касбий креативлигини шакллантириш методлари ва воситалари	118
Umaraliyeva M.A., Gulmonova D.B. Ta'limjarayonini takomillashtirishning modifikatsion imkoniyatlari	127
Турлибаева Г. М. Ихтисослашган умумтаълим мактаби ўқитувчининг иқтидорли ўқувчилар стратегияси	135
Халирова X. М. Неонологик ёндашув асосида бошлангич синф ўқувчилари онгида “тарбия” фанини шакллантириш механизmlарини такомиллаштириш ижтимоий зарурият сифатида	139
Qosimov F. M., Qosimova M. M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika o'qitishda o'quv faoliyatini tashkil etish shakllari mutanosibligini ta'minlash yo'llari	147
Почукаева Г. В., Маджуга А. Г. Эмпатическая культура личности как основа проектирования человекомерных систем: опыт концептуализации проблемы	156
Sayfullayeva D. A., Bozorova M. Sh. Umumkasbiy fanlarni o'qitishda dasturiy vositalardan foydalanish	164
Нуруллоев Л. Л. Енгил атлетика тўгаракларида шуғулланувчи болаларнинг умумий жисмоний тайёргарлиги кўрсраткичлари (умумтаълим мактаблари мисолида)	173
Абдуваҳобова Д. Э., Зияева М. Ф. Таълим жараёнида маънавий-маърифий ишлари-ни самарали ташкил этиш йўллари, шакл, метод ва воситалари	180
Рискулова К.Д. Чет тиллари ўқитувчилари компетентлигини шаклланишида халқаро хуқуқий-меъёрий мезонларни аҳамияти	186
Гаппарова М. Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini korparativ yondashuv asosida tashkil etish va boshqarish (Maktabgacha ta'lim yo'nalishi misolida)	196
Hamroyev R. R. Tibbiyot institutlarida axborot texnologiyalar fanini o'qitishning jihatlari	201
Raupova Sh. A., Parpieva M. S. Features of medical and pedagogical control in the process of physical education	208
Sayfullayeva D. A., Baxronova Sh. I.a Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning kreativligini rivojlantirish	213
Юсупова С. Н. Фарғона водийсида миллий-маданий марказларнинг миллатлараро муносабатларни уйғунлаштиришдаги ўрни	225
Икромов Х. О. Талаба ёшларда фаол фуқаролик ва хаётий позициясини шакллантиришнинг фалсафий, хуқуқий ва ахлоқий жиҳатлари	234
Комолова Ф. К. Ўзбекистон олий таълим тизимидаги ўзгаришлар	240
Mo'minova D. K. Texnologik ta'lim yo'nalishida ixtisoslik fanlarini o'qitishda "analogiyalar" texnologiyasidan foydalanish	244
Jo'rayev A. R., Xazratova Sh. X. Milliy hunarmandchilik makkablarida yoshlarni hunarmandchilik tadbirkorligiga yo'naltirish	249
Sayfullayeva D. A., Rayimova D. D. Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash fanini o'qitishda kelajakka sayohat texnologiyasidan foydalanish	256
Djalolova D. F. Ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'yilgan talablar va pedagogik jarayondagi qoidalar	267



## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MATEMATIKA O'QITISHDA O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH SHAKLLARI MUTANOSIBLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.77.68.019>

*Qosimov Fayzullo Muhammadovich,  
Buxoro davlat universiteti dotsenti*

*Qosimova Mavlyuda Muhammadovna,  
Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Maqsad: Boshlang'ich sinf matematika ta'limi jarayonida o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil etish shakllari muttanosibligini ta'minlash imkoniyatlarini ko'rsatish. Umumsinf ishi, jamoa va yakka tartibdagi ishlarni uzbek aloqadorlikda tashkil etish sxemalaridan matematika darslarida unumli foydalanish yo'llarini asoslash.*

*Metod: Boshlang'ich sinf matematika o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalangan holda jamoa bo'lib ishlash, kichik guruhlarda ishslash, o'quvchilarga erkin, mustaqil fikrlash uchun yakka tartibda ishslash, mustaqil ishlarni o'rinni tashkil qilish va natijalarni olish.*

*Natija: Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv faoliyatları muttanosibligini ta'minlashda, matematik tushunchalar mazmunini yoritishda, interfaol metodlardan foydalangan holda o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida umumsinf ishi, jamoaviy ish va yakka tartibdagi ishlarni tashkil etishning usullari keltirish natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv materialollarini o'zlashtirishlari ancha yuqori natija beradi.*

*Xulosa: Ushbu maqolada boshlabg'ich sinflarda matematika ta'limi jarayonida o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil etish shakllari- umumsinf ishi, guruh (jamo) ishi, yakka (individual) ishlarni tashkil etish hamda ularning asosiy xususiyatlar haqida fikrlar keltirilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv faoliyatları muttanosibligini ta'minlash imkoniyatlari matematik tushunchalar mazmunini yoritishda, matematika dars turlarini hisobga olgan holda yoritilgan*

*Kalit so'zlar: O'quvchi o'quv biluv faoliyati, umumsinf ishi, guruh ishi, jamoaviy ish, yakka tartibdagi ish, matematik topshiriq, geometric masalalar, algebraic materiallar, tenglama va tengsozliklar, to'g'ri to'riburchak, to'g'ri to'riburchak yuzi, og'zaki hisoblash usullari, yozma hisoblash usullari, arifmetik amallar, qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lism.*

## ОБЕСПЕЧЕНИЕ СОЧЕТАЕМОСТИ ФОРМ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ ПО ПРЕДПОДАВАНИЮ МАТЕМАТИКИ

*Аннотация. Цель: показать возможности обеспечения сочетаемости форм организации учебной деятельности учащихся в процессе обучения математике в начальной школе. Обосновать способы эффективного использования схемы организации общеклассной,*

групповой и индивидуальной работы на уроках математики.

*Метод: работа в команде с использованием интерактивных методов в обучении математике в начальной школе, работа в небольших группах, работа индивидуально, чтобы учащиеся думали свободно, независимо, надлежащая организация самостоятельной работы и получение результатов.*

*Результат: учащиеся начальной школы с большей вероятностью усваивают учебные материалы в результате внедрения методов организации классной, групповой и индивидуальной работы с целью обеспечения сочетаемости учебной деятельности, выделения содержания математических понятий, повышения эффективность обучения интерактивными методами.*

*Заключение: В статье представлены представления о формах организации учебной деятельности учащихся в процессе обучения математике в начальной школе - классная работа, групповая работа, организация индивидуальной работы и их основные особенности. Возможности обеспечения сочетаемости учебной деятельности младших школьников раскрыты в содержании математических понятий с учетом видов уроков математики.*

*Ключевые слова:* учебная деятельность учащихся, общеклассная работа, групповая работа, индивидуальная работа, математические задания, геометрические задачи, алгебраические материалы, уравнения и неравенства, прямоугольники, площадь прямоугольника, способы устных и письменных вычислений, арифметические действия, сложение, вычитание, умножение, деление.

## **ENSURING COMPATIBILITY OF FORMS OF ORGANIZATION LEARNING ACTIVITIES OF PRIMARY SCHOOL PUPILS MATHEMATICS**

*Abstract: Objective: To demonstrate the ability of students to ensure the coherence of forms of organization of educational activities in the process of teaching mathematics in primary school. substantiate the ways of effective use of schemes of organization of class work, group and individual work in mathematics lessons.*

*Method: Working as a team using interactive methods in the teaching of elementary mathematics, working in small groups, working individually for students to think freely, independently, appropriate organization of independent work and obtaining results.*

*Outcome: The organization of class work, group work and individual work in order to ensure the balance of learning activities of primary school students, to illuminate the content of mathematical concepts, to increase the effectiveness of teaching using interactive methods as a result of the introduction of methods, the mastery of teaching materials by primary school students gives a much higher result.*

*Conclusion: This article gives an idea of the forms of organization of students' learning activities in the process of teaching mathematics in primary school - general class work, group (group) work, organization of individual work and their main features. Opportunities to ensure the balance of learning activities of primary school students are covered in the content of mathematical concepts, taking into account the types of mathematics lessons*

*Keywords:* Student learning activity, class work, group work, individual work, mathematical assignment, geometric problems, algebraic materials, equations and inequalities, right rectangle, circle, Rectangular face, verbal calculation methods, written calculation methods, arithmetic operations, addition, multiplication, multiply, division

O'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil etishning umumsinf, guruh va yakka tartibdagi ko'rinishlari bir-biri bilan chambarchars bog'liq. Ayniqsa, matematika darslarida o'quvchilar o'quv- biluv faoliyatlarini tashkil etishning bu 3 xil ko'rinishlari orasidagi uzviylikni yaqqol ko'rish mumkin.

Umumsinf ishi deyarli har bir darsda o'tkaziladi. Unda topshiriq butun sinf o'quvchilariga beriladi. Butun sinf o'quvchilari birligida o'quv faoliyatları o'qituvchi tomonidan biror matematik tushuncha tushuntirilishida, masalalar muhokamasida, yangi hisob usullarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishida, geometrik mazmundagi o'quv topshiriqlarni bajarishda, yangi mazmundagi masalalar yechimlarini izlashda, algebraik materiallar-tenglama va tengsizliklarni yechishning dastlabki ko'rinishlari bilan tanishtirishda kuzatiladi. Ayrim tushuncha yoki bilimlar o'quvchilar tomonidan umumsinf ishi tarzida o'zlashtirishi o'quvchilarni qolgan guruh va yakka o'quv faoliyatlariga ta'sir etadi.

Matematika darslarida o'quvchilar o'quv faoliyatlarini tashkil etishning umumsinf ishi(frontal) ko'rinishi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

Butun sinf o'quvchilari biror topshiriq, yoki o'quv materiali bilan mashg'ul bo'ladilar.

Umumsinf ishi o'qituvchi boshqaruvi asosida amalga oshadi.

Umumsinf ishi reja asosida olib boriladi.

Frontal ishda o'quvchilarni faol ishtiroki, o'quv jarayonining tashkil etilishiga bog'liq.

Umumsinf ishi jarayonida o'quvchilarning individual, yosh xususiyatlari hisobga olinishi zarur.

Umumsinf ishining yuqorida qayd etilgan xususiyatlari bilan birga ayrim salbiy jihatlarini ham kuzatish mumkin.

Barcha o'quvchilarni o'zlashtirish darajasi,bilishi, fikrlash qobiliyatı bir xil emas. Shuning uchun umumsinf ishi bilan birga guruh (jamoa) va yakka tartibdagi ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiq;

Matematikadan o'quv topshiriqlarini bajarishda o'quvchilar turlicha yondashishlari mumkin. Faqat bitta usul emas

Umumsinf ishi boshqaruvida o'qituvchi faol bo'lsa, y'ani o'quvchi obyek vazifasida ishtirok etsa, jamoa va yakka ishlarda o'quvchi faol ya'ni

subyekt vazifasida xizmat ko'rsatadi.

Guruh (jamo) ishi bevosita umumsinf (frontal) ishini davomi sifatida, u bilan uzviy bog'liqlikda tashkil etiladi. Guruh ishini tashkil etish uchun guruhda faoliyat ko'rsatadigan a'zolarni shakllantirish lozim. Guruhn shakllantirishda o'quvchilarini o'zlashtirish darajasi, yosh xususiyati, jamoa bilan ishlash layoqati hisobga olinadi. Matematika darsini loyihalashda o'qituvchi guruhn shakllantirishni hisobga olmog'i zarur. Beriladigan o'quv topshirig'i guruh a'zolari bilimiga mosmi? Jamoa fikrlashib topshiriqni bajara oladimi? Bu savollarga javobni nazarda tutishi kerak.

Guruhlar shunday shakllantirilishi kerakki, unda a'lo bahoda, yaxshi bahoda o'qiydigan va bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham shu guruh a'zosi bo'lishi mumkin. Shuningdek ayrim hollarda o'quvchilarining o'zlashtirish darajasiga ko'ra ham guruhlarga ajratib guruh a'zolarining bilim saviyasiga mos o'quv topshiriqlarini tabaqalashtirgan holda berishi kerak. Jamoa bo'lib ishlashda o'quvchilarida kollektivda ishlash ko'nikmasini shakllantishga yordam beradi. Umumsinf ishi guruh ishini yakka tartibidagi ishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Yakka (individual) ish-o'quvchi tomondan mustaqil bajariladigan o'quv ishidir. O'quvchining yosh, individual xususiyati hisobga olgan holda tashkil etiladi. O'quvchilarini yakka tartibdagi ish faoliyatlari ko'pincha mustaqil beriladigan o'quv topshiriqlarida namoyon bo'ladi.

Matematika darslarida ko'pincha quydag'i tartibdagi o'quvchi o'quv faoliyatlari o'rtaсидаги узвиylikni ko'rish mumkin

U    G    Ya    G    U  
Bu yerda U-umumsinf ishi  
G- Guruh (jamo) ishi  
Ya- yakka (individual) ishi

Yuqorida sxema amalyotda ayrim boshlang'ich sinf o'quvchilarinig faoliyatlarida uchraydi. Ko'pchilik boshlang'ich sinf o'qituvchilar

U    Ya    U

Sxemadan foydalanib, o'quvchilar o'quv faoliyatlarini tashkil etishadi. Yakka topshiriqni butun sinfga havola qilishadi. Undan o'quvchi mustaqil ishlashga o'tadi va o'qituvchi topshirig'ini bajarib bo'lgach, yechimni sinf o'quvchilariga havola qilinadi. Yuqorida keltirilgan umumlashgan sxema ancha afzalliklarga ega. Chunki, topshiriq butun sinf o'quvchilariga, undan guruh(jamo) ga va undan so'ng o'quvchilarining yakka tartibdagi ishlariga havola qilinadi.O'quvchi o'quv topshirig'ini bajarib bo'lgach uni dastlab guruhda muhokama qiladi, so'ngra, butun sinf o'quvchilar bilan muhokama qiladi.

Endi ushbu sxema bo'yicha matematikadan o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil etish va uni nazorat qilish masalasini ko'rib chiqamiz.

Matematikadan 3-sinfda to'g'ri to'rtburchak yuzini topish mavzusi bo'yicha o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil etishning turlari to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

Butun sinf o'quvchilariga to'g'ri to'rtburchak yuzini hisoblash qoidasi o'rgatiladi, ya'ni "to'g'ri to'rtburchakning yuzi eni bilan bo'yining

ko'paytmasiga teng" qoida barcha sinf o'quvchilariga tushuntiriladi. So'ngra sinf o'quvchilari bilan mustahkamlashga doir mashqlar bajariladi. Masalan: a) "to'g'ri to'rtburchak eni 7 sm, bo'y 9 sm. Uning yuzini toping", b)"To'g'ri to'rtburchak shaklidagi maydon bo'y 40 m, eni 20 m. Bu maydon yuzasini toping", v) "Kompyuter ekrani to'g'ri to'rtburchak shaklida. Eni 2 dm, bo'y 3 dm. Yuzini toping".

Mustahkamlash bosqichida sinf o'quvchilari tegishli guruhlarga ajratib, har bir guruh a'zolari bilim saviyasiga mos to'g'ri to'rtburchak yuzini hisoblash topshirig'i beriladi. O'qituvchi har bir jamoaga mos to'g'ri to'rtburchak yuzini topishga doir topshiriqni kartochkalarga yozib, guruh jamoasiga taqdim etadi. Masalan sinf o'quvchilar 4 ta guruhga ajratilgan bo'lsa, har bir guruhga tegishli kartochkalarni tarqatadi.

#### 1-guruh uchun

Masala Sport maydoni to'g'ri to'rtburchak shaklida. Maydon eni 25 m, uzunligi 40 m. Sport maydoni yuzini toping.

#### 2-guruh uchun

Masala. Bog' to'g'ri to'rtburchak shaklida. Uning eni 20 metr, bo'y esa 30 metr. Bog'ning yuzini toping.

#### 3-guruh uchun

Masala. Qo'l to'pi o'yingohi to'g'ri to'rtburchak shaklida. Eni 24 metr, bo'y 40 metr. O'yingoh yuzini toping.

#### 4-guruh uchun

Masala. Poliz to'g'ri to'rtburchak shaklida. Polizning bo'y 50 metr, eni 30 metr uning yuzini toping.

Jamoadagi o'quvchilar berilgan masalani yechgandan keyin, har bir guruhdan bir o'quvchi masala yechimini sinfga havola qiladi. Shu o'rinda shuni aytish joizki, vaqtadan unumli foydalanish maqsadida o'qituvchi barcha guruh yechim variantlarini doskaga yozdirib, qaysi guruh tez va to'g'ri bajarishini darhol aniqlaydi. O'qituvchi o'quvchilar individual ishini tashkil etish maqsadida mustaqil ish berishi mumkin. Mustaqil ishning ham har xil ko'rinishlari bor. Butun sinf o'quvchilari uchun yagona bitta mustaqil ish, tabaqalashtirilgan mustaqil ish yoki har bir o'quvchi uchun alohida mustaqil ish tarzida o'quv topshiriqlarini berish mumkin. Yakka tartibda tashkil etilgan mustaqil ishlar o'quvchilarni mustaqil aktivliklari darajasini aniqlash maqsadida beriladi.

Darsning didaktik maqsadi, ma'lumot mazmuniga qarab o'qituvchi o'quvchi o'quv faoliyatini tashkil etish shakllaridan o'rinali foydalana olishi zarur. Ma'lumki matematikadan dars turlari asosan, yangi bilim berish, bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash, takrorlash hamda o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish kabi ko'rinishlarda bo'ladi. Har bir dars turiga qarab o'quvchi o'quv faoliyatini tashkil etish ko'rinishlari uyg'unligi turlicha bo'lishi mumkun.

Yangi bilim berish darslarini tashkil etish va uni o'tkazish bo'yicha quydagi variantlardan o'quvchi o'quv faoliyatini tashkil etish shakllari uyg'unliklarini ko'rsatish mumkin.

U Y ya'ni, yangi tushuncha yoki bilim butun sinf jamoasiga beriladi,

uni o'zlashtirish o'quvchilarni individual (yakka) o'quv faoliyati bilan uyg'unlashadi.

Y U bu uzviylik quydagicha sharhanadi. Yangi o'tiladigan mavzu yoki tushuncha o'quvchilarga mustaqil ish tarzida berilishi mumkin. Bu aynan muammoli holatni yaratish jarayonida sodir bo'ladi. O'quvchi berilgan muammoni hal qilish yo'llarini qidirib, o'z fikrini sinf o'quvchilari ya'ni umumsinf muhokamasiga havola qiladi. Bunday yondashuv o'quvchilarni mustaqil fikr yuritish ko'nikmasini tarkib toptirishga, mustaqil ishslashga xizmat qiladi.

U G Y ushbu sxema yangi ma'lumot o'quvchilarni umumsinf ishi muhokamasidan so'ng, guruh (jamoa) da puxta o'r ganilishi va har bir guruh jamoasi a'zosi tomonidan mustaqil o'r ganilishi nazarda tutiladi.

Y G U Ayrim hollarda ma'lumot dastlab o'quvchiga mustaqil o'zlashtirish tarzida berilib, o'zlashtirilgan ma'lumot belgilangan guruhda muhokama qilinib, so'ngra umumsinf ishi tarzida o'quvchilar tomonidan muhokama qilinib o'zlashtiriladi. Bu sxema asosida tashkil etilgan matematika darsi o'quvchi o'quv faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi. Chunki, o'quvchi dastlab ma'lumot yuzasidan mustaqil fikr yuritib, o'z fikrini guruh jamoasiga bildiradi, ya'ni jamoada ishslash ko'nikmasi shakllanadi. So'ngra guruhda o'r ganilgan ma'lumot butun sinf o'quvchilar muhokamasiga qo'yiladi.

Ikkinchi sinfdao'quvchilarni "yozma qo'shish" bilan tanishtirish yuzasidan o'quvchilar o'quv faoliyatlarini tashkil qilish shakllari uyg'ulashishining turli ko'rinishlarini ko'rib chiqamiz.

U Y sxema bo'yicha. O'qituvchi o'quvchilarga bugungi kungacha barcha hisoblashlarni og'zaki bajarilganligi, bugun hisoblashning yangi usuli "yozma hisoblash" bilan tanishtirishni aytib o'tadi.

35+21 ni dastlab og'zaki hisoblash yo'li bilan yechish mumkinligini ko'rsatadi. Bu umumsinf ishi tarzida o'tkaziladi.

$$35+21 = (30+5)+(20+1) = (30+20)+(5+1) = 50+6 = 56$$

$$35+21 = 35+(20+1) = (35+20)+1 = 55+1 = 56$$

$$35+21 = (30+5)+21 = (30+21)+5 = 51+5 = 56$$

Uchala hisob usulida yig'indiga yig'indini qo'shish, songa yig'indini qo'shish, yig'indiga sonni qo'shish xossalariiga asoslanib bajariladi. Buni osonroq hisoblash mumkinligini ya'ni yozma qo'shish usuli bilan o'quvchilarni tanishtiradi. Bu 35 soni ostidan 21 sonini shunday yozamiski, birlıklar ostidan birlıklar, o'nliklar ostidan o'nliklar kelsin. Dastlab birlıklar bilan birlıklarni qo'shamiz 5 ga 1 ni qo'shsak 6 hosil bo'ladi. 6 ni birlar ostidagi yig'indining birlar xonasiga yozamiz. Endi birlıklarni qo'shamiz. 3 ga 2 ni qo'shsak 5 o'nlik hosil bo'ladi. 5 ni yig'indining o'nlar xonasiga yozamiz. Demak natija 56. Yozma qo'shish quydagisi tarzda yoziladi.

+■(35@21)

Ushbu yangi hisob usuli o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun umumsinf ishi tarzida mustahkamlovchi topshiriqlar bajariladi. Bu mustahkamlovchi topshiriqlar o'quvchilarning yakka mustaqil tarzda faoliyat

yuritishlarini taqozo qiladi. O'quvchi o'quv faoliyati shakli yakka individual bo'ladi. Hisob usulining qay tarzda o'zlashtirilishi mustaqil-individual ish tarzida beriladi.

Yozma hisob usuli bilan tanishtirishda dastavval xona qo'shiluvchilar yig'indisi o'nlikdan o'tmahan holda qaraladi. "Yozma hisob" usuli bilan tanishtirishda o'quvchi o'quv faoliyatini tashkil etishning

Y G U asosida dars qurilishini ko'ramiz. O'qituvchi o'quvchilarga bir necha ikki xonali sonlarni qo'shishni mustaqil ish tarzida beradi: 32+15, 64+13, 25+30, 28+27

Bu hisob usullariga tayangan holda misollarni yozma bajaradilar. Ammo 28+27 ni yozma bajarishda o'quvchi qiynaladi. Bu misol o'quvchidan yangi hisoblash (o'nlikdan o'tib qo'shish) usulidan foydalanishni taqozo qiladi. Albatta bu topshiriq o'quvchi uchun muammo bo'ladi. Va bu hisoblashni guruh jamoasida muhikama qilinadi. Albatta bu muammoli holatni o'quvchilar mustaqil va guruh jamoasi a'zolari yordamida yechishga harakat qilishadi. So'ngra bu muammoli topshiriq umumsinf ishi tarzida muhokama qilinadi. Ya'ni o'quvchilarning o'quv faoliyatlarini umumsinf ishi tarzida amalga oshadi. Sinf o'quvchilari tomonidan hal etilsa, bu ijobjiy ish. Agar natijani topishda qiynalishsa, u holda o'qituvchi butun sinf o'quvchilariga yangi hisob usulini o'rgatadi.

+■(28@27) tushuntirish quydagicha bo'lishi mumkin. 27 ni 28 soni ostidan shunday joylashtirib yozamizki, birlar ostidan birlar, o'nliklar ostidan o'nliklar kelsin. Dastlab 8 birlikka 7 birlikni qo'shamiz 15 birlik bo'ladi. 15 birlik 1 ta o'nlik va 5 birlikdan iborat. 5 birlikni birlar xonasi ostidan yozamiz. 1 o'nlikni o'nlar xonasi ostiga qo'shib yozamiz. 2 o'nlikka 2 o'nlikni qo'shsak 4 o'nlik va yana 1 o'nlikni qo'shsak 5 o'nlik bo'ladi. 5 o'nlikni o'nliklar ostidan yozamiz. Shunday qilib, "28+27" ko'rinishdagi qo'shish usuli bilan tanishtirishda o'quvchilar o'quv faoliyatlarini tashkil etishning Y G U sxemasidan foydalaniladi.

O'zlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash darsi maqsadi, uning tarkibidan kelib chiqib, o'quvchilar o'quv faoliyatlarini tashkil etishning turli shakllari orasidangi uyg'unlikning quyidagi ko'rinishlarini amalga oshirishi mumkin.

Y G U mustahkamlash talab etiladigan o'quv topshirig'i har bir sinf o'quvchisining mustaqil ishlari tarzida bajarishga kirishadi. Topshiriq bajarilgach, bu topshiriq guruh jamoasi tomonidan muhokama qilinadi o'quvchining to'g'ri bajargan yoki bajarmagani tekshiriladi. Shundan so'ng bu topshiriq sinf o'quvchilari tomonidan muhokama qilinadi.

Ko'pincha bu muhokama misol yoki masala javobi "to'g'ri" yoki "noto'g'ri"ligi qayd etiladi. Misol tariqasida 1-sinf ikki amalli masalalarini yechish bo'yicha mustahkamlash darsida o'quvchilar o'quv faoliyatlarini tashkil etish shakllari bilan tanishib chiqsak. Oldingi darsda ikki amalli masalalarining hosil qilinishi va ularni yechish yo'llari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishgan. Bugungi darsning ta'limiy maqsadi Ikki amalli masalalar yechish ko'nikmasini mustahkamlashdan iborat. Quydagi masalaga qaraymiz. Masala: "Birinchi tokchada 16 ta kitob bor. Ikkinci tokchada undan 4 ta

ко'п kitob bor. Ikkala tokchada hammasi bo'lib nechta kitob bor?"

Bu masala o'quvchilarga mustaqil ishlashlari uchun beriladi. O'quvchilar masalani yechib bo'lgach, uni 4 kishidan iborat guruhda muhokama qilishadi. To'g'ri javobini topgach, masala yechimi to'g'rilingiga ishonch hosil qilgach, so'ngra bu masala butun sinf o'quvchilari ishtirokida muhokama qilinib, masala to'g'riliqi tekshiriladi. Ko'pchilik hollarda boshlang'ich o'qituvchilari bunday

Y U

ko'rinishdagi o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil etish shakllari uzviyligini qo'llashadi. Ya'ni mustahkamlash mashqlari o'quvchilar mustaqil ish tarzida beriladi, so'ngra bu mashq umumsinf ishi tarzida muhikama qilinadi.

Ayrim o'qituvchilar sinf o'quvchilarining guruh (jamoa)ga ajratib, har bir guruh uchun mustahkamlash maqsadida o'quv topshiriqlarini beradilar. Guruh a'zolari o'zlariga tegishli o'quv topshiriqni bajarib, uni sinf o'quvchilariga muhokama uchun havola qilinadi. Ya'ni quydagi tartibda ish tutishadi

G Y U

Shu tarkibiga doir quydagi topshiriqni ko'rib chiqamiz.

1-guruh topshirig'i

18+2, 20-5, 15+10, 25-5, 20+8, 28+2, 30-10, 20-2

Har bir o'quvchi birin ketin bu aylanma misolni bajarib, oxirgi yechgan o'quvchi misollar yozilgan kartochkalarni o'qituvchiga taqdim qiladi.

Xuddi shunday topshiriqlar 2-, 3-, 4- guruhlarga tarqatilib, natijalar olingach o'qituvchi barcha sinf o'quvchilari bilan topshiriqni tahlil qiladilar. Bunday topshiriq 1-sinfda 100 ichida sonlarni qo'shish va ayirishni mustahkamlash maqsadida beriladi.

O'quv topshiriqning xilma-xil tanlash o'qituvchiga bog'liq. Dars maqsadidan kelib chiqib, o'quv topshiriqlarini tanlashda uzviylik bir-birini to'ldirish, tizimlilik tamoyillariga e'tibor berilishi kerak.

Matematikadan o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda takrorlash darslarida o'quvchilar o'quv faoliyatlarini tashkil etishning va bu shakllar mutanosibligining turli sxemalaridan foydalanshlari mumkin.

Boshlang'ich sinflarda matematikadan ta'lif berishda o'quvchilar o'quv faoliyatlarini tashkil etish shakllari mutanosibligi ta'minlash o'quv jarayoni samaradorligini oshishiga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar

Jumayev va boshqalar "Matematika o'qitish metodikasi" Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik T.2018. O'qituvchi. 326b

F.M.Qosimov." Methods of teaching to solve non-standard problems" Midle European scientific bulletin. ISSN 2694-9970 Volume 11 April. 2021

F. Qosimov. M. Qosimova Taking into account the individual characteristics of students in teaching mathematics.

4. F. Qosimov, M. Qosimova .TO DEVELOP STUDENT'S SKILLS OF NATURE CONSERVATION AND RESPECT FOR HUMAN LABOR



BY TEACHING THEM TO SOLVE ENVIRONMENTAL PROBLEMS” Vol 10, Issue 1, January 2021:ACADEMICIA An International multidisciplinary Rese rch Journal

5. .M.M. Қосимова A. Қосимов. “ON SOME TYPICAL PROBLEMS TO BE SOLVED IN PRIMARY SCHOOLS” Vol 10, Issue 1, January 2021:ACADEMICIA An International multidisciplinary Rese rch Journal

6. M.Qosimova K. Karimova “ PROBLEMS OF FINDING THE SUM COR DIFFERENCEJ OF TMO NUMBERS AND THEIR” Актуалные вопросы современной науки и образования.

7. M.Qosimova . A. Qosimov “ On some typical problems to be solved in primary schools” An International Multidisciplinary Research Journal January 2021

8. F.Qosimov, A.Qosimov, M.Qosimova ““ TO Develop students’, skills of nature conservation and respect for human labor by tefching them to solve environmental problems” Asian Journal of multidisciplinary Research (AJMR), Januariry 2021

9. F.Qosimov, M.Qosimova” PROBLEMS FOR FINDING TWO ( OR SEVERAL) NUMBERS ACCORDING TO THEIR SUBJAST AND DIFFERENCE” Seintific Journal of SCIENIFIC PROGRESS ISSN:2181-1601

## ЭМПАТИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА ЛИЧНОСТИ КАК ОСНОВА ПРОЕКТИРОВАНИЯ ЧЕЛОВЕКОМЕРНЫХ СИСТЕМ: ОПЫТ КОНЦЕПТУАЛИЗАЦИИ ПРОБЛЕМЫ

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.66.46.020>

Почукаева Галина Владимировна,  
магистр психологии, доцент

Южно-Немецкий институт логотерапии и экзистенциального  
анализа Виктора Франкла, г. Мюнхен, Германия

Маджуга Анатолий Геннадьевич,  
доктор педагогических наук, доктор психологических наук,  
профессор, заведующий кафедрой педагогики, психологии и  
здравьесбережения, Институт развития образования Республики  
Башкортостан, главный внештатный педагог-психолог Республики  
Башкортостан, г. Уфа, Россия

**Аннотация.** В статье рассмотрены особенности эмпатической культуры как сложного междисциплинарного феномена; уточнена дефиниция «эмпатическая культура» в аспекте концептуальных теоретических положений полипарадигмального подхода. Особое внимание уделено определению сущностных характеристик эмпатической культуры и описанию обозначенного феномена в контексте полипарадигмального подхода. Авторы доказывают, что эмпатическая культура выступает в качестве основы проектирования человекомерных систем и профессионально важного качества в помогающих (социономных) профессиях.

**Ключевые слова:** социономные профессии, эмпатия, эмпатическая культура, эмоционально-аффективная сфера, человекомерные системы.

**Abstract:** The article examines the features of empathic culture as a complex interdisciplinary phenomenon. It is clarified the definition of «empathic culture» in the aspect of conceptual theoretical provisions of the polyparadigm approach. Special attention paid to define the essential characteristics of empathic culture and describing the indicated phenomenon in the context of the polyparadigmatic approach. The authors argue that empathic culture serves as the basis for the design of human-dimensional systems. Professionally important quality in helping (socionomic) professions.

**Key words:** socionomic professions, empathy, empathic culture, emotional-affective sphere, human-dimensional systems.

**Annotasya.** Maqolada empatik madaniyatning xususiyatlari murakkab fanlararo hodisa sifatida ko'rib chiqilgan. Poliparadigma yondashuvining kontseptual nazariy qoidalari aspektida «empatik madaniyat» ta'rifiga aniqlik kiritildi. Empatik madaniyatning muhim xususiyatlarini aniqlashga va ko'rsatilgan hodisani poliparadigmatik yondashuv kontekstida tavsiflashga